

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

31

YOSHDA

1 SENTYABR – MUSTAQILLIK KUNI

**SENTYABR****№44**

CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uzwww.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
7-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-7**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-7**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 44-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 45 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

1. D.Sh.Islomov

FRANSUZ TILIDAGI FONOSTILISTIK USLUBLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYAT-LARI 7

2. Iskandarova Adolat

RUS TILI FANLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LIDAGI TADQIQOTLAR 10

3. Лобар Хусановна Юсупова

ЮМОРИСТИК МАТНЛАРНИНГ АСОСИЙ ЖИХАТЛАРИ 11

4. Худайберганова Гўзал

ХОРИЖИЙ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ 13

5. Бекчанова Дурдона Исмаил кизи, Раҳимова Санобар Батировна

ПЕЙСАЖ В «СЕВАСТОПОЛЬСКИХ РАССКАЗАХ» Л.Н.ТОЛСТОГО 14

6. Madrimova Gulbahor Abdirimovna

O'RTA TA'LIM TIZIMIDA ONA TILI FANINI O'QITISHNING MUAMMOLARI 16

7. Qadirova Qizlarxon Komuljonovna, Mahmudova Mardonra Otabek qizi

USMON NOSIR IJODINING O'ZIGA XOS TOMONLARI 18

8. Сайдова Шоира Бахтиёровна, Машарипова Назокат Уктамбоевна

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНТРОПОНИМОВ В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ 20

9. Орипов Эгамберди Зулунович

ИЗУЧЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИНОНИМИИ НА ЛЕКЦИИ И НА ПРАКТИЧЕСКОМ
ЗАНЯТИИ ПО СОВРЕМЕННОМУ РУССКОМУ ЯЗЫКУ 22

10. Abdullayeva Asaljon

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI RUS TILI FANIGA O'RGATISHNING
INTERFAOL METODLARI 24

11. Seytimbetova Aykumar Pulatbaevna

THEORETICAL BASES OF THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE
LINGUISTIC AND REGIONAL ASPECT 25

12. Seytimbetova Aykumar Pulatbaevna

LINGUACULTURAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH
ETHNOGRAPHIC COMPONENTS 27

13. Takhirova Sayyora Abdumannanovna

SYNTACTIC PROBLEMS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION (ON THE EXAMPLE
OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES) 29

14. Karimova Firuza Sobirovna

ONA TILI DARSLARIDA FE'L SO'Z TURKUMINING O'GANILISHI YUZASIDAN
TAVSIYALAR 31

15. Matyoqubova Zuhra Bekturdiyevna, Matyoqubova Shaxnoza Bekturdiyevna

ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI 33

16. Otaboyeva Hurshida Saidali qizi

FEATURES OF THE USE OF A COMMUNICATIVE APPROACH IN TEACHING
COLLOQUIAL SPEECH TO YOUNGER GRADES 35

17. Qodirova Zohida Shermamatovna

FE'L SO'Z TURKUMIDA SHAXS-SON QO'SHIMCHALARI USLUBIYATI YUZASIDAN
MULOHAZALAR 37

18. Tursunova Iroda Salixovna, Tuychibayeva Muxayyo Anvarovna

ENGLISH TEACHING METHODS 39

19. Komolova Dilafruz Muhammad qizi

MODERN PROBLEMS OF LINGUISTICS AND METHODS OF TEACHING ENGLISH 41

20. Набиева Гулбахор Акбаралиевна

"ШУМ БОЛА" АСАРИ ТАРЖИМАСИДА ТАРЖИМОН МАҲОРАТИ 43



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

FRANSUZ TILIDAGI FONOSTILISTIK USLUBLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

D.Sh.Islomov
BuxDU tayanch doktoranti

ANNATATSIYA

Hozirgi kunda fransuz tilida talaffuz uslublarining ko'plab tasniflari mavjud bo'lgani kabi, so'zlashuvning fonostistik farqlanishida hali ham ko'plab muammolar mavjud. Mazkur maqola bu muammolarni inobatga olgan holda hozirgi fransuz tili fonostistikasida kommunikativ vaziyatga mos ravishda og'zaki nutqning turli tip va janrlarida fonostistik farqlanishi va fonetik vositalarning o'zgarishini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Kommunikativ vaziyat, og'zaki nutq, talaffuz uslublari, stressli urg'u, ritm, orfoepik me'yor, tovushlar artikulyatsiyasi, nutqning tezligi, ohang, urg'usiz bo'g'in.

Inson tili muloqot vositasi sifatida bir hil emas. Bu muloqot sharoitlariga, suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlarning tabiatiga, so'zlayotgan sub'ektning niyatlariga va u murojaat qilayotgan kishiga, shuningdek uzatilgan xabarga bo'lgan munosabatiga qarab o'zgaradi. Galereyada, ishxonada, ko'chada, oilada, do'stlar o'rtasida va hokazolarda so'zlashuv tili bir xil bo'lmaydi.

Hozirgi fransuz tili fonostistik kommunikativ vaziyatga mos ravishda og'zaki nutqning turli tip va janrlarida fonetik vositalarning o'zgarishini o'rganadi. Umuman olganda, uslublar tilning fonetik vositalarini tanlash natijasi bo'lib, orfoepik me'yorning o'zgarishlaridan birini aks ettiradi. Talaffuz uslublarining ko'plab tasniflari mavjud, ammo fransuz tilida so'zlashuvning fonostistik farqlanishi hali ham ko'plab kamchilik va muammolardan holi emas.

Izlangan uslub - tinglovchilar oldida aytildigan tantanali nutq, uni ishontirishga, taassurot qoldirishga yoki teginishga harakat qiladi. Bu yig'ilish, marosim, yubiley va boshqalar nutqi hisoblanadi. Mazkur maqola ushbu uslubning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi: bu unli va undoshlarning aniq talaffuzi (shuningdek, urg'usiz bo'g'lnarda); bu ko'p sonli [ə] ning saqlanishidir. Ohang juda tantanali bo'lsa, bu holatda barcha mumkin bo'lgan [ə] ni talaffuz qilish maqsadga muvofiqdir.

So'zdagi undosh tovushlarning talafuzi juda aniq bo'lgani uchun so'z oxirida [ə] paydo bo'ladi ammo talaffuz qilinmaydi. Chunki so'zning oxiridagi o'qilmaydigan unli undan oldin kelgan undoshni aniq talaffuz qilish uchun xizmat qiladi. Masalan: **monde, tumulte, homme**.

Bog'lanishlar 2 guruhga bo'linadi: 1) undosh bog'lanish (**liaison consonantique**) 2) unli bog'lanish (**liaison vocalique**). Fransuz tili fonetikasida (**Enchainement**) bog'lanishlar mavjud. Birinchi so'zning oxiridagi o'qilmaydigan undosh va ikkinchi so'zning boshidagi o'qiladigan unli o'rtasida undosh bog'lanish (**liaison consonantique**) deyiladi. Misol uchun: *je dis encore, nous sommes obligés*.

Birinchi so'z oxiridagi unli va ikkinchi so'zning boshidagi unli o'rtasidagi liaison vocalique ya'ni unli bog'lnish deyiladi. Misol uchun: *Il va à la gare, Il va au cinéma*. Hozirgi fransuz tilida bog'lanishlar soni sezilarli darajada oshmoqda. Majburiy ulanishlar haqida gapirmasa ham bo'ladi. Sababi og'zaki nutqda ko'plab grammatik qoidalarga amal qilinmayapti, natijada o'z-o'zidan fonetik o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Bu o'zgarishlar yangi ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish kerakligini taqazo qilmoqda.

Oqim sekinlashganda, so'zlar yoki so'zlar guruhlarini ta'kidlashga yordam beradigan juda ko'p noodatiy, kutilmagan, ifodali pauzalar mavjud. Misol uchun: **Je suis infiniment touché | que le gouvernement et la municipalité | me donnent l'occasion | de m'adresser directement | aux habitants de notre capitale**.



Ritmga so'zlarning boshlang'ich bo'g'inlarini uradigan ko'p sonli stressli urg'u kuchli ta'sir ko'rsatadi: "***obscures et "accessoires, "toute entière, "le président, faire "renaître, etc.*** Yana bir urg'u so'zlarning bo'g'inli talaffuziga qaratilgan. Misol uchun : ***de-la-par-ti-ci-pa-tion***. Ohang ham o'zgarib turadi, davomi tushuvchi ohang bilan, yakuniy qismi esa ko'tariluvchi kuy bilan ijro etiladi. Misol uchun : ***Je[†] dis encore une fois[†], que[†] si les chefs de l'insurrection[†] veulent discuter avec l'autorité avec les autorités[†], des conditions de la fin des combats[†], ils peuvent le faire[†]***

O'rta uslub tadqiqotsiz va tanishsiz talaffuzni tavsiflaydi, bu umuman orfoepik me'yorni aks ettiradi. Bu rasmiy, sayqallangan suhbat, maktab yoki universitetda ishlatalidigan til. O'rta uslub radio va televidenie boshlovchilarining talaffuzida ifodalanadi. Bu teatrlashtirilgan emas, oddiy o'qishning talaffuzi. Ushbu uslubga xos xususiyatlar quyidagilardir. Unli va undosh tovushlarning artikulyatsiyasi urg'uli holatda keskin bo'ladi. Urg'usiz bo'g'inlarda **e - ε, o - ɔ, ο - œ** unlilarining farqi unchalik aniq emas, ular ayniqsa oddiy suhbatda o'rtacha bo'ladi. Ko'p sonli [ə] o'tkazib yuborilgan; ko'pincha [ø] talaffuz qilinmaydi. Shu bilan birga 3 ta undoshning bir paytning o'zida ketma-ket kelishida saqlanadi, lekin 2 undoshning yig'ilishida u tushiriladi. Misol uchun: ***vous n'avez pas vous imaginer; dès l'départ; on vous demand'ra; etc.***

Undosh tovushlarni assimilyatsiya qilish juda keng tarqalgan va ixtiyoriy bog'lanishlar sodir bo'lmaydi. Misol uchun: ***nous sommes | obligés; je dois | ajouter; c'est| un garçon difficile***. Oqim tezroq bo'ladi - nutqning tezligi aloqa holatini hisobga olgan holda nutqning mazmuniga qarab o'zgarishi mumkin: biz ikkilanayotgan joyda pauzalar paydo bo'ladi, biz so'zlarni takrorlaymiz, unlilarni cho'zamiz. Misol uchun: ***Nous avons besoin de....jeunes ingénieurs; Oui mais....c'est pas tellement du journalisme qu'on vous demandera; Et le....le reste du temps elle dissipe ses camarades.***

Urg'ular juda muntazam. Misol uchun: ***J'ai 'fait ma li'cence et en'suite j'ai sui'vi les 'cours pour a'voir mon d'iplôme de traduc'trice professio'nnelle.***

Talaffuz ohanglari 4 ohang darajasidan foydalangan holda oddiy chiziqqa amal qiladi: davom, yakuniylik, so'roq, undov. Ammo bu holatda ohang o'zgarishi mumkin, bahslashish, ikkilanish, shubha va hokazolarni aks ettirish uchun o'zgartirilishi mumkin. Og'zaki muloqotdagi ohang gap oxiriga kelib ko'tarilishi mumkin. Misol uchun: ***Je vous propose cela comme un premier projet[†]. En gros, bon, vous irez là-bas par avion[†]. Il n'y a pas de problèmes[†].***

Oilaviy uslub oila, do'stlar va boshqalar bilan suhbatda ishlatalidigan talaffuzni tavsiflaydi. Til o'z-o'zidan og'zaki muloqotda talaffuz oqimini tez, ifodalilagini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Bo'g'im bo'shashadi. [ə] ning tushishi so'zlashuv tilida juda keng tarqalgan. Misol uchun: ***Il faut qu(e) j(e) r(e)garde; d(e)mandez-lui***, etc. U boshqalar hurmat qiladigan sharoitlarda, masalan, ritm guruhining boshida tushishi mumkin: ***j'suis prof'sseur.***

Adabiyotlar ro'yxati :

1. Chigarevskaia N. Traité de phonétique française. Cours théorique. – Moscou : Vischaïa chkola, 1973.
2. Béchade H. D. Phonétique et morphologie du français moderne et contemporain. – Paris : Presses universitaires de France, 1992.
3. D.Sh.Islomov. (2021). The Definition of The Concepts of «Phoneme» and «Phonostylistics». Middle European Scientific Bulletin, 9. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.9.204>
4. D.Sh.Islomov. (2021). Phonetics and Phonology. *Middle European Scientific Bulletin*, 11. Retrieved from <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/470>
5. Islomov, D. (2021). THE ROLE OF PHONOSTYLISTIC UNITS AND PHONEMES IN THE PROCESS OF TEACHING FRENCH TO ADULTS IN THE ANALYSIS OF EXAMPLES. Конференции, 1(1). <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.971>
6. ISLOMOV, D. Sh, and GA JAHONGIROVA. "THE ROLE OF PHONOSTYLISTICS AND PHONOSTYLISTIC UNITS IN TEACHING FRENCH AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS." E-Conference Globe. 2021.
7. Д.Ш Исломов. "Поэтические формы как культуроцентрический компонент при обучении иностранному языку". Статьи в Академии Наука. Мысль: электронный периодический журнал, 2015. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/poeticheskie-formy-kak-kulturovedcheskiy-komponent-pri-obuchenii-inostrannomu-yazyku> (дата обращения: 13.03.2021).
8. Д.Исламов, НВ Ванцова, ТМ Хусяинов – "Возможности использования проектной



методики при преподавании иностранных языков” Наука. Мысль: электронный периодический журнал, 2016. 6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnosti-ispolzovaniya-proektnoy-metodiki-pri-prepodavanii-inostrannyh-yazykov> (дата обращения: 13.03.2021).

9. Islomov, D. (2021). ЖИЗНЬ АБДУЛЛЫ КАДИРИ И ЕГО ВКЛАД В УЗБЕКСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.Uz*), 6(2). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/561

10. Islomov, D. (2021). ФОНЕМА ВА ФОНОСТИЛИСТИКА НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ПОНЯТИЯ ФОНЕМЫ И ФОНОСТИЛИСТИКИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.Uz*), 1(1). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/560



RUS TILI FANLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LIDAGI TADQIQOTLAR

Iskandarova Adolat

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
35- son maktabi rus tili fani o'qituvchisi
Tel + 99-893-289-59-72 adolatiskandarova@gmail.com

Annotatsiya: Rus tili fanlarini rivojlantirish yo'lidagi tadqiqotlar, rus tili darslarida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash, so'zlashish mahoratini oshirish, rus tili o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi to'g'risida fikr mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Rus tili fanlari, zamonaviy axborot texnologiyalar, AKT, interfaol metodlar, ta'lim jarayoni, o'qituvchi, o'quvchi, maktab, nutqiy muloqot, o'rghanuvchilar.

Rus tilni o'rghanish o'ta murakkab jarayon bo'lib, bunda til o'rghanuvchidan diqqatni jamlash talab qilinadi. Hozirgi texnologiya rivojlangan bir davrda o'quvchilar AKTdan foydalanib o'tilgan darslarda diqqatli o'tiradilar. Rus tili o'rghanuvchilarning diqqatini bir joyga jamlashda rus tili darslarini til o'rghanish o'yinlarga va uslublarga asoslanib tashkil qilinishi talim jarayoni samaradorligini oshiruvchi omillardan biri deb hisoblayman. Hozirgi kunda rus tili fanini bolalarga o'rgatishda darsda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish juda muhimdir. Bundan ko'rinish turibdiki, rus tilidan dars beradigan har bir o'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalana olishi lozim. Tan olamizki ayrim o'qituvchilar komputerdan, axborot vositalaridan foydalana olishmaydi. Endi faqat darslik yoki 1 yoki 2 tarqatma bilan tashkil qilingan dars o'quvchilarni jalb qila olmaydi. Aynan shuning uchun ham darslarda axborot texnologiyalardan foydalanish bugunning asosiy talablaridan biridir. Kodoskop, proyektor, magnitafon, kompyuter, internet, interfaol doska televizor kabi texnik vositalar darsning qiziqarli tashkil etilishiga yordam beradi. Rus tilini o'rghanishda multimediyalarning ahamiyati beqiyosdir. Rus tili xonalarini zamonaviy jahon standartlari talablari asosida jihozlash, buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarimiz ular uchun oson bo'limgan tilni ravon va qulay o'rghanmoqdalar. Hozirgi kunda filologiya fanlariga bo'lgan e'tiborning oshishi bilan uni o'rghanishga va baholashga qo'yilgan talablar ham oshib bormoqda. Zamonaviy metodlar o'quvchilarning rus tilida erkin so'zlashish iste'dodlarini shakllantirish bilan birga, ularning tanqidiy fikrlash va jamoa bo'lib ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ko'pgina yuqori sinf o'quvchilari sinf oldida o'z fikrlarini bayon etishga, rus tilida so'zlashga uyalishadi yoki qo'rqlik shadi. Qo'rquvning asosiy sababi esa o'ziga bo'lgan ishonchhsizlik va yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmastikdir. O'quvchilarda bu qo'rquvni yengish uchun darslarda kommunikativ o'yinlar va mashg'ulotlarni o'z vaqtida hamda to'g'ri qo'llash yuqori natijalar beradi.

Rus tili o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi. Didaktikadagi rivojlantiruvchi ta'lim ma'nosi bilan hamohang bo'lib, o'quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivatsion jihatlarini rivojlantirishni ifodalaydi. O'quvchi intellektual va ma'naviy ozuqa oladi, nutqiy muloqotda o'z hissiyorini sinab ko'radi, muloqotdoshlar fikrini bilish va fikrini bayon etish orqali uning shaxsi kamol topib boradi. Ta'lim jarayonida, jumladan rus tili o'rghanishda me'yordagi lisoniy va nutqiy qiyinchiliklarni yengib o'tish o'quvchi tafakkuri va his tuyg'ularining rivojlanishini ta'minlaydi. Rivojlantiruvchi maqsadga nutqiy amallar tufayligina erishiladi. Uning umumta'limiy maqsaddan jiddiy farqi shundaki, o'quv ma'lumotlari olish bilan ta'lim fikran bog'lanadi, ma'lumotning mazmuni turli kompetensiyalarni shakllantirishga hizmat qiladi. Ta'lim, jumladan, rus tili o'rghanish shaxs rivojlanishida alohida o'rin egallaydi. Til psixologik, kommunikativ, funksional va madaniy hodisa bo'lganligi sababli bilish jarayoni uchun o'ta ahamiyatli, chunki u bilmaslikdan bilishga eltuvchi omilldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Rus tillarni o'rgatishda rol o'ynash o'yinlari. 1989
2. R.Shodihev. H. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida.
3. "Xalq ta'limi" 2018. Xalq ta'lim 2014. "ilmiy metodik jurnal".



ЮМОРИСТИК МАТНЛАРНИНГ АСОСИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Лобар Хусановна Юсупова
Ўзбекистон халқаро Ислом академияси
Ўқитувчи
Тел: +998903530098

Аннотация:

Мақолада юмористик матнларни танлаш тамойилларини белгилаш асосида ижтимоий-маданий компетенциянинг тузилиши ва мазмунини белгилаш муҳокама қилинади, бу эса юмористик матнларни ўқиш асосида чет тилидаги ижтимоий-маданий компетенцияни шакллантиришнинг назарий асослари билан асосланади.

Калит сўзлар: дискурсив, ижтимоий компетенстия, семантика, алоқа.

Тилни мукаммал эгаллаган инсон, сўз сигналини "маданий ҳаловат" билан бирга кўйлайди, бўлмаса матн маъносига маданий ҳодисанинг ифодаси сифатида кириб бўлмайди. Бундан келиб чиқадики, юмористик матнларни ўқиши коммуникатив ва ижтимоий-маданий ваколатларни ўқитишининг бифункционал воситаси сифатида ишлатиш услубий жиҳатдан мақсадга мувоғиқ кўринади, бу мақсадлар учун ҳар қандай жанрдаги матнлардан фойдаланиш мумкин. Бироқ, юмористик матнлар энг долзарбdir, чунки этносемантик ва дискурсив даражалар уларни тушуниш учун жуда муҳимдир.

Биринчи даражада семантик бўлиб, унда таҳлилнинг асосий бирликлари икки томонлама тил бирликлари-сўз ва ибора, яъни, грамматик категория хисобланади. Ушбу даражада хабар энг тўғридан-тўғри тушунилади. Бу даражадаги тушунмовчиликнинг сабабларидан бири бу тиллараро аралашувнинг мавжудлиги. Семантик даражада тушунмовчилик ҳақиқий тил бирликларининг маъносини етарли даражада аниқ билмаслик туфайли юзага келади.

Иккинчи даражада семантический. Муаллифларнинг фикрича, " тилнинг ҳар бир сўзи шу тилда сўзлашувчи халқнинг маданиятини акс еттирувчи кичик бўлгидир. Этно-семантик даражада тушуниш бутун ижтимоий-маданий ва экспрессив-баҳоловчи концепциялар тизимини, шунингдек ушбу тил бирлашмасининг маданий асосларини акс еттирувчи вертикаль контекстнинг барча тоифаларини билиш орқали таъминланади."Ушбу тушуниш даражасидаги қийинчиликлар ёзма нутқ хабарини идрок этишда ўқувчининг ўз маданиятига хос бўлган мажозий стереотипларнинг бутун тизимиға ўтишда пайдо бўлади. Бир хил воқеъликни турли тилларда турлича тушуниш мумкин. Ўзбек маданияти вакили учун оқ ранг поклик, шодлик ранги бўлса, Ҳиндистон халқи учун мотам рангидир. Агар ўзбек учун қора мушук муваффақиятизлик ва баҳцизликнинг рамзи бўлса, инглиз учун, аксинча, қора мушук баҳт ва омад келтиради. Нутқ фигуralари мажмуаси, маълум бир халқнинг филологик юкларини акс еттирувчи троплар, тушуниш жараёнини тўхтатиши мумкин, чунки улар нотўғри талқин қилиниши ёки бошқа маданият ташувчиси учун шунчаки номаълум бўлиши мумкин. Нутқ хабарини тушунишнинг учинчи даражаси паралингвистик бўлиб, оғзаки бўлмаган мулоқотнинг бир қатор муаммоларига таъсир қиласи, яъни кинесика ва ксемикани факат оғзаки нутқ хабарига боғлаш мумкин.

Бундан ташқари, инглиз тилини ўрганувчи "The Queen and Her relatives", иборасини грамматик жиҳатдан тўғри ифодалashi мумкин, аммо британиялик "The Queen and Her relatives" нимани англатишини деярли тушунмайди; ёки, масалан, Қаҳрамон ибора-муаллиф ғояларининг намояндаси - "The hero is the loudspeaker of the author" (муаллифи карнайи) деб таржима қилинган. Бундай қизиқишилар жуда кенг тарқалган.

Нутқ хабарини тушунишнинг тўртингчи, дискурсив даражаси маълум бир одамларга хос бўлган нутқнинг коммуникатив моделини таҳлил қилишни ўз ичига олади. Ижтимоий-маданий шартли нутқ ҳатти-ҳаракатларининг моделлари шунчалик фарқ қилиши мумкинки, уларнинг бехабарлиги ёки тушунмовчилиги маданиятлараро алоқада қайгули муваффақиятизликка олиб келади. "Дискурсив даражада ахборот хулқ-атвор, урф-одатлар, динлар ва табуларнинг миллий тарихий ва маданий хусусиятларининг мураккаб бирлашмаси бўлган ўзига хос ижтимоий-маданий филтрдан ўтади." Шундай қилиб, чет тилидаги оғзаки ва ёзма нутқ хабарини, шу жумладан ҳазил-мутойибани тушунишда муваффақият кўп жиҳатдан ўрганилаётган маданият тилининг асосий хусусиятлари, шунингдек миллий урф-



одатлар, қадриятлар тизими, одатлар, урф-одатлар, турмуш тарзи ва ҳатто одатий хурофотлар қанчалик яхши маълумлигига боғлиқ. Семантик сатҳда фақат тил бирликларининг лексик фонигина очиб берилади. Этносемантик даражада эса, лисоний бирликларнинг ижтимоий-маданий заминини тушунишни назарда тутади. Тил бирликларининг лексик ва ижтимоий-маданий асослари ўртасидаги фарқни айрим мисоллар орқали кўрсатиш мумкин. Шундай қилиб, “foreigner” сўзининг лексик фонида унинг бевосита маъноси, яъни хориждан келган киши (бошқа мамлакатдан келган киши), “foreign” сўзининг лексик фонида хорижий (бошқа мамлакатга хос бўлган нарса) тушунтирилади ва очиб берилади. Юкорида айтилган сўзларнинг ижтимоий-маданий фон инглизлар, қоида тариқасида, бу сўзлар салбий нуктаи назардан ишлатилади, бу орқали, уларнинг ватанпарварлиги кўрсатилади, яъни хорижий ҳамма нарса учун антипатия кўрсатилади.

Ўқиши ўрганиш жараёнида, тил бирликларининг лексик ва ижтимоий-маданий асослари билан ишлашдан ташқари, талабалар эътиборини маданий ҳақиқатларга қаратиш ҳам муҳимдир, бу нафақат объектив воқеъликнинг маҳсус объектлари, балки маҳсус референтлар - объектив воқеъликнинг элементлари сифатида ҳам кўриб чиқилиши керак, бу шахснинг онгиди акс этади, яъни. ушбу лингвистик ифода ўзаро боғлиқ бўлган фикр объектларидир. Матнларнинг маданий қатлами ҳақида шубҳа йўқ, чунки Г. Д. Томахина, " аслида тил ва маданият ўртасидаги яқинлик энг аниқ намоён бўладиган жиҳатдир: жамиятнинг моддий ва маънавий ҳаётида янги воқеъликларнинг пайдо бўлиши тилда воқеъликларнинг пайдо бўлишига олиб келади ва янги воқеъликларнинг пайдо бўлиш вақти жуда аниқ белгиланиши мумкин, чунки луғат ижтимоий ҳаётда барча ўзгаришларга таъсир қиласди."Матнни ижтимоий-маданий таҳлил қилиш учун маҳсус алгоритмни ишлаб чиқиш, тил белгисини идрок етишни кутиш ва уни декодлашга имкон бериш керак.

Бу ўқувчиларга ўқилаётган нарсанинг маъносини аникроқ аниқлашга ва инвариант ахборотни ёритишга ёрдам беради. Бундан, юмористик адабиётларни ўқиш алгоритми моделга мувофиқ, маҳсус жанр хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ва матн турига қараб (латифа, ҳазил, ҳазил ҳикояси) ишлаб чиқилиши керак деган хulosса келиб чиқади. Ҳазил матни ҳар қандай маданий матннинг ягонал функцияларига ега, шунинг учун ҳазил матнларини ўқиш маҳаллий инглиз тилида сўзлашувчиларнинг маданияти ва ҳаётини яхшироқ тушунишга ёрдам беради. Маданият (ҳақиқий дунё) матнни, айниқса кулгили матнни сақлаб қолиш учун энг мос муҳитдир, чунки кулгили матнлар қўпинча маданий маълумотлар билан тўлдирилади. Юкорида айтилганларнинг барчаси матннинг лингвистик таҳлилидан ташқарига чиқиш, ўқишининг ижтимоий-маданий мазмунини биринчи ўринга чиқариш зарурлигини кўрсатади.

Шундай қилиб, анъанавий ўқиши ўқитишдан ажратиш ва ҳақиқий ижтимоий-маданий таркибни таҳлил қилишга ўтиш лингводидактиканинг замонавий мақсади - чет тилини ўрганиш ўз-ўзидан мақсад сифатида емас, балки маданиятни билиш воситаси сифатида амалга оширилишини таъминлаши керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Томахин Г. Д. Реалии в языке и культуре // Иностранные языки в школе. 1997. № 3. 13–18.б
2. Саланович Н. А. Обучение чтению аутентичных текстов лингвострановедческого содержания // Иностр. языки в школе. 1999. № 1. 18–21.б



ХОРИЖИЙ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ

Худайберганова Гўзал

Хоразм вилояти Кўшкўпир тумани
5-сон ИДУМининг немис тили фани ўқитувчиси
Тел + 99-897-456-31-07 go'zalhudayberganova@gmail.com

Аннотация: Таълим олувчиларни фаоллаштирувчи ва мустақил фикрлашга ундовчи, таълим жараёнининг марказида таълим олувчи бўлган хакида сўз юритилади.

Калит сўзлар: Методлар , муаммоли вазият, таълим, дарс жараёни.

Хорижий тили дарсларида дарс жараёни оқилона ташкил қилиниши, таълим берувчи томонидан таълим олувчиларнинг қизиқишини орттириб, уларнинг таълим жараёнида фаоллиги муттасил рағбатлантирилиб турилиши, ўқув материалини кичик-кичик бўлакларга бўлиб, уларнинг мазмунини очишда ақлий ҳужум, кичик гурухларда ишлаш, баҳс-мунозара, муаммоли вазият, йўналтирувчи матн, лойиҳа, ролли ўйинлар каби методларни қўллаш ва таълим олувчиларни амалий машқларни мустақил бажаришга ундаш талаб этилади.

“Кичик гурухларда ишлаш” методи - таълим олувчиларни фаоллаштириш мақсадида уларни кичик гурухларга ажратган ҳолда ўқув материалини ўрганиш ёки берилган топшириқни бажаришга қаратилган дарсдаги ижодий иш.

Ушбу метод қўлланилганда таълим олувчи кичик гурухларда ишлаб, дарсда фаол иштирок этиш ҳуқуқига, бошловчи ролида бўлишга, бир-биридан ўрганишга ва турли нуқтаи- назарларни қадрлаш имконига эга бўлади.

“Кичик гурухларда ишлаш” методи қўлланилганда таълим берувчи бошқа интерфаол методларга қараганда вактни тежаш имкониятига эга бўлади. Чунки таълим берувчи бир вактнинг ўзида барча таълим олувчиларни мавзуга жалб эта олади ва баҳолай олади. Куйида “Кичик гурухларда ишлаш” методининг тузилмаси келтирилган.

“Кичик гурухларда ишлаш” методининг босқичлари қуидагилардан иборат:

1. Фаолият йўналиши аниқланади. Мавзу бўйича бир-бирига боғлиқ бўлган масалалар белгиланади.
2. Кичик гурухлар белгиланади. Таълим олувчилар гурухларга 3-6 кишидан бўлиннишлари мумкин.
3. Кичик гурухлар топшириқни бажаришга киришадилар.
4. Таълим берувчи томонидан аниқ кўрсатмалар берилади ва йўналтириб турилади.
5. Кичик гурухлар тақдимот қиласидилар.
6. Бажарилган топшириқлар муҳокама ва таҳлил қилинади.
7. Кичик гурухлар баҳоланади.

«Кичик гурухларда ишлаш» методининг афзаллиги:

- ўқитиши мазмунини яхши ўзлаштиришга олиб келади;
- мулоқотга киришиш кўнимасининг такомиллашишига олиб келади;
- вактни тежаш имконияти мавжуд;
- барча таълим олувчилар жалб этилади;
- ўз-ўзини ва гурухлараро баҳолаш имконияти мавжуд бўлади.

«Кичик гурухларда ишлаш» методининг камчиликлари:

- баъзи кичик гурухларда кучсиз таълим олувчилар бўлганлиги сабабли кучли таълим олувчиларнинг ҳам паст баҳо олиш эҳтимоли бор;
- барча таълим олувчиларни назорат қилиш имконияти паст бўлади;
- гурухлараро ўзаро салбий рақобатлар пайдо бўлиб қолиши мумкин;
- гурух ичида ўзаро низо пайдо бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азизхўжаев. Н.Н Ўқитувчи тайёрлашнинг янги педагогик технологияси. Т.2000
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997



ПЕЙСАЖ В «СЕВАСТОПОЛЬСКИХ РАССКАЗАХ» Л.Н.ТОЛСТОГО

Бекчанова Дурдона Исмаил кизи

Тупроккалинского района учительница
русского языка и литературы средней
общеобразовательной школы №19

Телефон: 998995009305

Рахимова Санобар Батировна

Тупроккалинского района учительница
русского языка и литературы средней
общеобразовательной школы №19

Телефон: 998975122603

Анотация: Мировая литература не знает более сильного, страстного и последовательного разоблачителя недостатков общества, чем Лев Толстой. Невозможно себе представить ни русской, ни мировой литературы без великого русского писателя Л.Н.Толстого.

Ключевые слова: Лев Толстой , мировой литературы, русского писателя , «Азбука», «Казаки», романы «Анна Каренина», «Война и мир», «Воскресение», пьесы «Власть тьмы», «Живой труп», текст.

Л.Н.Толстой (1829-1910)-русский писатель XIX и начала XX вв. Он известен такими своими книгами, как автобиографическая трилогия «Детство», «Отрочество», «Юность», позже выходят в свет повесть «Казаки», романы «Анна Каренина», «Война и мир», «Воскресение», пьесы «Власть тьмы», «Живой труп».

Л.Н.Толстой заботился и о детях. Он создал много басен, сказок и рассказов для детского чтения. Написал Л.Н.Толстой для крестьянских детей «Азбука» и «Новую Азбуку».

Великий писатель стремился дать детям доступные им сведения о законах природы, советовал, как практически использовать эти законы в крестьянском быту и хозяйстве. Произведения Л.Н.Толстого разрабатывают важные нравственные проблемы, дают анализ внутреннего мира героев, отличаются художественным совершенством формы, поэтической ясностью и лаконизмом языка.

«Севастопольские рассказы Л.Н.Толстого посвящены героической обороне черноморской крепости, которая, несмотря на самоотверженность защитников, была оставлена вследствие экономической слабости крепостной России. Главный герой рассказов – это правда.

Л.Н.Толстой сам был участником обороны Севастополя, поэтому его рассказы являются драгоценным свидетельством очевидца, который обладал не только художнической наблюдательностью, но и умением оценивать события с исторической стороны.

Данная научная статья посвящена рассмотрению вопроса о композиционной и идейной роли пейзажа в «Севастопольских рассказов» нельзя не обратить внимания на то, что Л.Н.Толстой избегает говорить о каком-либо из рассказов в отдельности. Очевидно, в его представлении, это нечто единое, нерасторжимое, что объединяется не только общностью содержания, использованием одинакового материала, сквозным героем, но и также важно единство авторского отношения к изображаемому. В цикле сюжет зависит от характеров, от их развития, от авторского отношения к ним.

В «Севастопольских рассказах» характер Солдата развивается по двум каналам, в двух планах: один создаётся, собственно, сюжетом, второй-пейзажем. И рядом с бодрой линией сюжета развивается линия пейзажа. И чем выше оптимистический накал первой линии, тем мрачнее пейзажи, тем скорбнее сокровенные мысли писателя.

Л.Н.Толстой в рассказах наряду с показом патриотизма русского солдата, усиливает и пейзаж. Все кругом мрачно, холодно, сырь и чёрно, «а все-таки в герое живет вера в несокрушимость русского оружия».

Безымянный герой «Севастопол в декабре» входит в трактир и слушает бодрые разговоры бывалых севастопольцев. И автор делает такой вывод: «В полчаса, которые вы провели в трактире, погода успела перемениться: туман, расстилавшийся по морю, собрался в серые, скучные, сырь тучи и закрыл солнце; какая –то печальная изморозь сыплется сверху и мочит крыши, тротуары и солдатские шинели...»



Л.Н.Толстой даёт картину города в следующем пейзаже: «Уже вечереет . Солнце перед самым закатом вышло из-за серых туч, покрывающих небо, и вдруг багряным светом осветило лиловатые тучи, зелёноватое море, покрытое кораблями и лодками, колыхаемое ровной, широкой зыбию, и белые строения города, и народ, движущийся по улицам. По воде разносятся звуки какого-то старинного вальса, который играет польковая музыка на бульваре, и звуки выстрелов с бастионов, которые странно втаят им».

Пейзаж в «Севастопольских рассказах» Л.Н.Толстого занимает совершенно определенное место и выполняют роль своеобразного контраста к повествованию. Пейзаж в цикле Л.Н.Толстого не только средство создания типического образа, не только средство эмоционального воздействия на читателя, но и средство выражения авторского отношения к изображаемой действительности.

Литература:

1. Толстой Л.Н. Полное собрание сочинений в 4-ти томах. М.,1954
2. Толстой Л.Н. Собрание сочинений в 12-ти томах. М.,1987



O’RTA TA’LIM TIZIMIDA ONA TILI FANINI O’QITISHNING MUAMMOLARI

Madrimova Gulbahor Abdirimovna

Xorazm viloyati Tuproqqa'l tumani
19-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili dars va darsliklarida uchraydigan ayrim kamchiliklar va ularni hal qilish bo'yicha kerakli tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, darslik, ta'lim, til, lug'at, ona tili, xatolik, o'qituvchi, muammo, dars, bog'lovchi.

Bugungi kunda ona tilimizni o'rganish, uning sofligini saqlab qolish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Ona tilimizning milliyligini, sofligini saqlab qolish, unga bo'lgan hurmatni oshirishda insonlarda bilim bo'lishi lozim. Bilim esa, albatta, maktablardagi fan o'qituvchilari tomonidan beriladi, - desak adashmagan bo'lamiz. Har bir yetishib kelayotgan yosh avlodning ona tilimizda ravon va mustaqil tarzda so'zlashida o'qituvchilarning xizmatlari benihoya cheksizdir.

Bugun ta'lim sohamizda ona tili fanini o'qitishda ba'zi bir muammolar ham mavjudki, bular tilimizning sofligiga, milliyligiga, boyligiga putur yetkazayotgan holatlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Natijada ushbu fanni o'qitishda, o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazib berishda ba'zi bir qiyinchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Bu holatlar esa, albatta, ta'lim sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Quyidagilar bugungi kun ona tili fanini o'qitishda yechilishi kerak bo'lган muammolar sanaladi:

O'qituvchilarning sof adabiy tilda so'zlashmasligi. Ha, aynan bugungi ta'lim tizimimizda shunday ona tili fanini o'rgatuvchi o'qituvchilar borki, o'zлari ona tilimizda sof tarzda so'zlashishni bilmay turib, o'quvchilarga ta'lim bermoqda.

Tilimizning sofligiga e'tibor bermagan, kerak bo'lгanda o'zbek tilidagi muqobil so'zlarni topa olmasdan, uning o'rnida boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni ishlataligani, tilimizni humatsizlantiradigan o'qituvchilar qanday shogird tayyorlashlari mumkin?

Ona tili darslarimizning o'zbek tilida emas, boshqa tillarda o'tilishi. Bu holatni shahar maktablariagi sinflarda ko'p uchratamiz. Ona tili darslari jarayonida tojik, rus tilidan foydalanib o'quvchilarga o'z ona tilimizni o'rgatayotgan o'qituvchilar ham uchrab turibdi. Axir, o'quvchilar o'z ona tilisi – davlat tilini boshqa tillarda qanday qilib o'rganadi? Bir jumlan o'zbek tilida to'g'ri tushuntira olmaydigan yoshlarning o'sha fikrni to'g'ri va ravon yozib bera olmasligi - bu boshqa masala.

Yangi yaratilayotgan darsliklardagi berilgan lug'at so'zlar asosida biror bir qo'llanmaning yaratilmaganligi. Bu hozirgi maktablardagi eng dolzarb masala sanaladi. Yangilangan ona tili darsligiga e'tibor bersak, ko'plab matnlar va o'sha matnlar asosidagi lug'atlar berilganligini ko'ramiz. Ba'zi lug'atdagi so'zlarni o'zimiz zo'rg'a topib, o'quvchilarga yetkazamiz. Lekin o'quvchilar bu lug'at so'zlarning ma'nosini qayerdan topishadi? Ularning izlanishlari uchun ham biror bir darsliklarga asoslangan lug'atlar jamlanmasini yaratish vaqt kelmadimikan?

Darsliklardagi berilgan qoidalarning bir – biriga mos tushmasligi. Maktab darsliklarini bir – biriga taqqoslab turib, bir sinfda berilgan ma'lumotning boshqa bir sinfdagi shu mavzuga oid bo'lgan ma'lumotdan farq qilishini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, 5-sinf ona tili darsligida gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari to'rt xil deb ko'rsatilgan bo'lsa, 10-sinf ona tili darsligida faqat uchtasi haqida ma'lumot berilgan. 5-sinf ona tili darsligida ilmiy va kasbiy atamalar deyilgan mavzu bor. 10- sinf ona tili darsligida esa ilmiy atamalar terminlar deb atalyapti. O'qituvchilar esa o'quvchilarga ularning bir narsani anglatuvchi tushuncha ekanligini tushuntirgunicha qancha vaqt o'tishini o'ylab ko'rganmisizlar? O'quvchilarning hammasi ham birdaniga buni tushuna olmaydi-ku! Yoki 9-sinf darsligida qo'shma gaplar bog'lovchi vositalariga qarab uch turga bo'linishi haqida ma'lumot bor: bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz. Ammo 10-sinf darsligi "Qo'shma gaplar uslubiyati" mavzusida qo'shma gaplarning bog'lovchi vositalariga ko'ra ikkiga: bog'lovchili va bog'lovchisiz turlarga bo'linishi ko'rsatilgan. Bunday misollarni ko'plab toppish mumkin. Shu o'rinda bir haqli savol tug'iladi: "Bunday holatda o'qituvchilar qanday yo'l tutishi kerak? Axir, o'quvchilar uchun darslik eng muhim va ishonchli manba sanaladi-ku!" Nazarimizda, darsliklar ustida ham puxta ishslash vaqt keldi.

Pedagog kadrlarning an'anaviy usuldagagi darslardan voz kecholmaganliklari. Bu muammoni



istagan ta’lim muassasasida uchratishimiz mumkin. O’qituvchilar hali hamon ko’chirib yozish, mashq bajarish, savolga javob berish kabi usullardan foydalangan holda dars o’tmoqdalar. Ko’pchilik o’qituvchilar kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni bilishmaganligi yoki maktablarda darsni zamonaviy usulda o’tishning iloji yo’qligi uchun ham an’anaviy usullardan foydalanishmoqdalar. Sinflarda o’quvchilar sonining ko’pligi ham an’anaviy usulning umrini uzaytirmoqda. Bir xil vazifa bajaradigan, har darsda savolga javobni kitobdan bir amallab o’qib beradigan, mashqni ko’chirib kelganligi uchun baho oladigan o’quvchilarning soni ortib bormoqda.

O’quvchilarni darssga jalb qilish uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishimiz kerakligi bugungi kun ta’lim tizimimizning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Yuqorida sanab o’tilgan muammolarga yechim topilmas ekan, ona tilimizning sofligini saqlab qolishimiz, tilimizga bo’lgan faxr – iftixor tuyg’ularini o’quvchilar ongiga singdirishimiz qiyin bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili darslarida o’quvchilar nutqini o’stirishning asosiy yo‘nalishlari.
2. Shayxislamov, N. Z. (2020). Tilshunoslik keng qamrovli fan sifatida.
3. O’rta ta’lim maktablarining ona tili darsliklari.
4. Internet saytlari.



USMON NOSIR IJODINING O‘ZIGA XOS TOMONLARI

Qadirova Qizlarxon Komuljonovna

